



О‘ЗBEKISTONDA SHAXS RAQAMLI SUVERENITETINING KONSTITUTSIYAVIY-HUQUQIY POYDEVORI

Uzbekova Go`zal Murat qizi

*Toshkent Davlat Yuridik Universiteti
magistranti*

E-mail: guzaluzbekova3@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada shaxsning raqamli suvereniteti tushunchasi, uning konstitutsiyaviy-huquqiy asoslari va amaldagi normativ-huquqiy bazada aks etish holati tahlil qilinadi. Hozirgi davrdagi raqamlashtirish jarayonida shaxsning huquq va erkinliklarini himoya qilishning yangi yondashuvlari yoritiladi.

Kalit so‘zlar: raqamli suverenitet, konstitutsiyaviy huquqlar, shaxsiy ma’lumotlar, axborot xavfsizligi, raqamli davlat, raqamli huquqlar.

Abstract: The article analyzes the concept of personal digital sovereignty, its constitutional and legal foundations, and its manifestation in the current normative-legal framework. New approaches to protecting individual rights and freedoms in the process of digital transformation are considered.

Keywords: digital sovereignty, constitutional rights, personal data, information security, digital state, digital rights.

Аннотация: В статье анализируется понятие цифрового суверенитета личности, его конституционно-правовые основы и состояние его отражения в действующей нормативно-правовой базе. Выделяются новые подходы к защите прав и свобод личности в условиях современной цифровизации.

Ключевые слова: цифровой суверенитет, конституционные права,



персональные данные, информационная безопасность, цифровое государство, цифровые права.

Bugungi murakkab globallashuv davrida biz hayotimizni internet, raqamli texnologiyalarsiz tasavvur qila olmaymiz. Raqamli texnologiyalar deganda ma'lumotni raqamli formatda yaratish, saqlash, uzatish va qayta ishlashga imkon beruvchi texnologiyalar tushuniladi. Kompyuterlar, smartfonlar, internet, bulutli xizmatlar, sun'iy intellektshular jumlasidandir. Bu vositalar hayotimizning barcha sohalariga chuqur kirib borgani sayin, shaxsning raqamli makondagi huquqlari va erkinliklarini himoya qilish masalasi har qachongidan dolzarb masala bo`lib qolmoqda.

Dunyo hamjamiyatining ajralmas bo`lagi sifatida O`zbekistonda ham raqamlashtirish jaryonlari jadal sur`atlar bilan rivojlanib bormoqda. Mamlakatimizda “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi doirasida davlat boshqaruvi, iqtisodiyot, ta’lim, sog‘liqni saqlash va boshqa sohalarni raqamlashtirishga katta e’tibor qaratilmoqda. Prezident Sh. Mirziyoyev ta’kidlaganlaridek: “Har bir soha va hudud raqamli texnologiyalar bilan hamohang rivojlanmasa, mamlakat rivojlanmaydi”

Shuni ta’kidlash lozimki, raqamlashtirish jarayoning jadal rivojlanib borishi bilan birga, shaxsiy ma'lumotlarning oshkoralashuvi, sun'iy intellekt tizimlari orqali kuzatuv mexanizmlari, raqamli identifikatsiya kabi jarayonlar shaxsning raqamli suverenitetini himoya qilish zaruratini keltirib chiqarmoqda. Shu sababli, mazkur institutni konstitutsiyaviy-huquqiy jihatdan mustahkamlash hozirgi davrda dolzarb vazifa hisoblanadi. Shu o`rinda “raqamli suverenitet” hamda “shaxs raqamli suvereniteti tushunchalariga to`xtalib o`tsak.

“Raqamli suverenitet” atamasi dastlab davlat miqyosida — milliy axborot makonining mustaqilligi va xavfsizligini ta'minlash ma'nosida qo'llanilgan. Unga



ko`ra raqamli suverenitet - bu davlat yoki tashkilotning o'zining raqamli aktivlarini, jumladan, ma'lumotlar, infratuzilma va operatsiyalarni tashqi ta'sirlardan mustaqil ravishda nazorat qilish vakolati. U ma'lumotlar suverenitetini (ma'lumotlarni to'plash, saqlash va qayta ishlash ustidan nazorat) va texnologik suverenitetni (foydalaniladigan raqamli texnologiyalar ustidan nazorat) o'z ichiga oladi. Ushbu kontsepsiya xavfsizlikni ta'minlash, milliy qonunlarga rioya qilish va globallashtirilgan raqamli makonda, ayniqsa xorijiy texnologiya gigantlariga tobora ortib borayotgan qaramlik bilan nazoratni saqlab qolish zarurati bilan asoslanadi. Bugungi kunda bu tushuncha shaxsga nisbatan ham ko`chganini bevosita guvohi bo`lmoqdamiz. Shu nuqtai nazardan aytishimiz mumkinki, "shaxs raqamli suvereniteti" fanda dolzarb kategoriyalardan biriga aylanmoiqda.

Shaxs raqamli suvereniteti — bu fuqaroning raqamli makonda o'z huquq va erkinliklarini mustaqil amalga oshirishi, o'ziga tegishli bo'lgan ma'lumotlarni boshqarish va himoya qilish hamda raqamli muhitdagi xavfsizlikni ta'minlash imkoniyatidir. Bu tushuncha inson erkinligining raqamli ko'rinishidir desak to'g'ri bo'ladi. Masalan, oddiy fuqaro o'z fotosuratlarini, joylashuvi, sog'lig'i yoki moliyaviy ma'lumotlari kim tomonidan, qanday maqsadda yig'ilayotganini bilishga va buni boshqarishga haqli bo'lishi kerak.

Har bir insonning raqamli izi — u foydalanayotgan ilovalar, ijtimoiy tarmoqlardagi postlar, elektron to'lovlar — katta ma'lumotlar bazalarida saqlanadi. Agar bu ma'lumotlar ustidan nazorat bo'lmasa, inson o'zining raqamli shaxsini yo'qotadi. Shu bois raqamli suverenitetni himoya qilish – bu shunchaki texnik masala emas, bu inson sha'nini, erkinligini va huquqlarini himoya qilish demakdir. Mazkur tushuncha konstitutsiyaviy huquqlar — shaxsiy daxlsizlik, axborot olish va tarqatish erkinligi, shaxsiy hayot sirini saqlash huquqi bilan bevosita bog'liq.

O'zbekiston Respublikasining 2023-yilda qabul qilingan yangi Konstitutsiyasi raqamli davr talablarini inobatga olgan holda inson huquqlari



doirasiga raqamli huquqlarni ham kiritdi. Bu yangilik O‘zbekistonning zamonaviy demokratik davlat sifatida fuqarolarning raqamli erkinliklarini himoya qilishga intilayotganidan dalolat beradi. Yangi O‘zbekiston Konstitutsiyasi inson huquqlarini raqamli davr talablari bilan uyg‘unlashtirdi. Raqamli huquqlarni konstitutsiyaviy darajada mustahkamlash — bu mamlakatning demokratik, ochiq va texnologik jamiyat sari dadil qadami hisoblanadi. Yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida insonning axborot sohasidagi huquqlariga alohida e’tibor qaratilgan. Bu borada asosiy Qomusimizning quyidagi moddalarini alohida e’tirof etishimiz mumkin:

31-modda – shaxsiy hayot daxlsizligi – “Har bir inson shaxsiy hayotining daxlsizligi, shaxsiy va oilaviy sirga ega bo‘lish, o‘z sha’ni va qadr-qimmatini himoya qilish huquqiga ega. Har kim yozishmalari, telefon orqali so‘zlashuvlari, pochta, elektron va boshqa xabarlari sir saqlanishi huquqiga ega. Ushbu huquqning cheklanishiga faqat qonunga muvofiq va sudning qaroriga asosan yo‘l qo‘yiladi. Har kim o‘z shaxsiga doir ma’lumotlarning himoya qilinishi huquqiga, shuningdek noto‘g‘ri ma’lumotlarning tuzatilishini, o‘zi to‘g‘risida qonunga xilof yo‘l bilan to‘plangan yoki huquqiy asoslarga ega bo‘lmay qolgan ma’lumotlarning yo‘q qilinishini talab qilish huquqiga ega” Bu modda raqamli muloqot vositalarida - telefon, internet, ijtimoiy tarmoqlarda shaxsiy ma’lumotlarning daxlsizligini himoya qiladi.

Yoki Konstitutsiyaning 33-moddasida axborot olish huquqi haqida bo‘lib unga ko‘ra: “Har kim istalgan axborotni izlash, olish va tarqatish huquqiga ega. Davlat Internet jahon axborot tarmog‘idan foydalanishni ta’minlash uchun shart-sharoitlar yaratadi” - Bu norma raqamli muhitda fuqarolarning internet orqali axborot olish va uni erkin tarqatish huquqini kafolatlaydi, shuningdek davlatning axborotdan foydalanish hamda axborot xavfsizligini ta’minlash borasidagi vazifasini ham



ifodalaydi. Mazkur normalar shaxs raqamli suverenitetining konstitutsiyaviy poydevori sifatida qaralishi mumkin.

Hozirgi kunda O`zbekistonda raqamli huquq sohaini tartibga solish va takomilashtirish masalasiga juda katta e`tibor qaratilmoiqda. Milliy huquqiy asos sifatida “Axborotlashtirish to`g`risida” “Elektron hukumat to`g`risida”gi, “Elektron raqamli imzo to`g`risida” va “Shaxsga doir ma`lumotlar to`g`risida”gi qonunlar qabul qilingan bo`lsa, 2020-yildagi “Raqamli O`zbekiston – 2030” strategiyasi” esa davlat siyosatining yo`nalishlarini aniq belgilab berdi. “Raqamli O`zbekiston – 2030” strategiyasida mamlakat raqamli infratuzilmasini rivojlantirish bilan bir qatorda, ma`lumotlar xavfsizligini ta`minlashni ham ustuvor yo`nalish sifatida belgilagan. Bu hujjatlar O`zbekistonda shaxs raqamli suverenitetning davlat siyosati darajasida e`tirof etilganini ko`rsatadi.

2019-yilda qabul qilingan “Shaxsga doir ma`lumotlar to`g`risida”gi Qonunni oladigan bo`lsak, mazkur qonun fuqarolarning shaxsiy ma`lumotlari faqat ularning roziligi bilan yig`ilishi, qayta ishlanishi va O`zbekiston hududidagi serverlarda saqlanishini belgilaydi. Shuningdek, qonunga ko`ra fuqaro o`z ma`lumotlarini ko`rish, o`zgartirish yoki o`chirish huquqiga ega. Bu — shaxs raqamli suverenitetning muhim asosidir.

Shaxs raqamli suverenitetining konstitutsiyaviy-huquqiy asoslarini mustahkamlash O`zbekiston uchun huquqiy va amaliy jihatdan zarur. Bu nafaqat inson huquqlarini himoya qiladi, balki davlatning raqamli mustaqilligini ham ta`minlaydi. Raqamlashtirish davrida shaxsiy daxlsizlik, shaxsiy ma`lumotlarni himoya qilishda Birlashgan Millatlar Tashkiloti, Yevropa Ittifoqitajribasidan (GDPR) foydalanish, xalqaro standartlarni joriy etish hamda sud-huquq tizimi vakillari uchun raqamli huquq bo`yicha maxsus tayyorgarlik dasturlarini ishlab chiqish orqali ushbu sohani yanada rivojlantirish bugungi kunda dolzarb bo`lib qolmoqda. Shu nuqtai nazardan Konstitutsiyaviy darajada “raqamli suverenitet” va



“raqamli huquqlar” tushunchalarini aniqlash, shaxsiy ma’lumotlarni himoya qilish mustaqil markazini yaratish; raqamli identifikatsiya tizimlarida shaxs roziligi prinsipini mustahkamlash; raqamli huquq savodxonligini oshirish bo‘yicha ta’lim dasturlarini joriy etish, sun’iy intellekt va katta ma’lumotlar tizimlarida konstitutsiyaviy nazorat mexanizmini yaratish - shaxs raqamli suverenitetini ta’minlashda muhim omillar bo‘lib xizmat qiladi.

Adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi (2023).
2. Shaxsga doir ma’lumotlar to‘g‘risida Qonun. 2019.
3. Axborotlashtirish to‘g‘risida Qonun. 2003.
4. Elektron hukumat to‘g‘risida Qonun. 2015.
5. Raqamli O‘zbekiston – 2030 strategiyasi. 2020.
6. GDPR (EU), 2018.
7. Karimov B. Axborot xavfsizligi va konstitutsiyaviy huquqlar. T.: TDYUI, 2022.
8. Xamidova N. Raqamli suverenitet tushunchasi va uni ta’minlash mexanizmlari. Juridik fanlar jurnali, 2023.